

OLIV TA'LIM TYURORLARNING FAOLIVAT SAMARADORLIGIDA TASHKILOTCHILIK VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANISHI

Alijonov Nurbek Ulug'bek o'g'li
Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida tyutorlarning faoliyati samaradorligini oshirishda tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalarining o'rni hamda ularni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganish zarurati tahlil qilinadi. Tyutorlik amaliyotiga xos bo'lgan shaxslararo muloqot, motivatsion qo'llab-quvvatlash, o'quvchilar bilan individual ishlash jarayonlarida ushbu ko'nikmalarning psixologik mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tyutorlik, tashkilotchilik, komunikativ, kognitiv jarayonlar, motivatsion omillar, empatiya, verbal.

РОЛЬ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ И КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЬЮТОРОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Алижонова Нурбека Улугбек угли
Преподаватель кафедры психологии

Аннотация: В данной статье анализируется роль организаторских и коммуникативных навыков в повышении эффективности деятельности тьюторов в современном образовательном процессе, а также необходимость их изучения с социально-психологической точки зрения. Раскрываются психологические механизмы этих навыков в процессах межличностного общения, мотивационной поддержки и индивидуальной работы с учащимися, характерных для тьюторской практики.

Ключевые слова: тьюторство, организаторство, коммуникативные, когнитивные процессы, мотивационные факторы, эмпатия, вербальные.

THE ROLE OF ORGANIZATIONAL AND COMMUNICATIVE SKILLS IN THE EFFECTIVENESS OF HIGHER EDUCATION TUTORS

Alijonov Nurbek Ulugbek ugli
Psychology Department Lecturer

Abstract: This article analyzes the role of organizational and communication skills in enhancing the effectiveness of tutors' activities in the modern educational process, as well as the need to study them from a socio-psychological perspective. The





psychological mechanisms of these skills are revealed in the processes of interpersonal communication, motivational support, and individual work with students characteristic of tutoring practice.

Keywords: tutoring, organizational skills, communicative, cognitive processes, motivational factors, empathy, verbal.

Ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash va pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yishda tyutorlar roli tobora ortib bormoqda. Tyutorning samarali faoliyati ko'plab psixologik omillar bilan belgilanadi, ulardan eng muhimlari — tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalardir. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ta'lim jarayonini izchil tashkil etishga, balki talaba bilan sog'lom, samarali muloqot hamda ishonchli psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Tashkilotchilik ko'nikmalari tyutorning ta'lim jarayonini rejalashtirishi, vaqtni boshqarishi, resurslarni taqsimlashi va o'quvchi faoliyatini muvofiqlashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko'nikmalarning ijtimoiy-psixologik asoslari quyidagilardan iborat:

- Kognitiv jarayonlar (e'tibor, xotira, muammolarni tahliliy hal etish);
- Motivatsion omillar (maqsadni belgilash va unga yo'naltirish);
- Liderlik va tashabbuskorlik xususiyatlari;
- Hamkorlikni tashkil etish kompetensiyasi.

Tashkilotchilik ko'nikmalarining rivojlanish darajasi tyutorning o'quvchilar faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Rejalashtirilgan, aniq strukturalangan o'quv jarayoni o'zlashtirish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ ko'nikmalar tyutorning o'quvchilar, ota-onalar va boshqa pedagoglar bilan samarali muloqot olib borish qobiliyatini anglatadi. Bu jarayonning psixologik asoslari quyidagilardan iborat:

- Verbal va noverbal muloqotni boshqarish;
- Empatiya va faol tinglash ko'nikmalari;
- Shaxslararo munosabatlarda moslashuvchanlik;
- Konfliktlarni konstruktiv hal etish;
- Psixologik qo'llab-quvvatlash va motivatsiya berish.

Kommunikativ kompetensiya yuqori bo'lgan tyutorlar o'quvchilarda ijobiy o'quv motivatsiyasini shakllantira oladi, stress holatlarini yumshatadi va o'zaro ishonch muhitini yaratadi.

Tyutorlarning tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalarini ilmiy o'rganish bir qator ijtimoiy-psixologik jihatlar bilan izohlanadi:

1. O'quv jarayonining individualizatsiyasi — har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish.
2. Samarali muloqot madaniyatini shakllantirish — ta'lim muhitida psixologik farovonlikni ta'minlash.
3. Pedagogik hamkorlikni mustahkamlash — o'quvchi–tyutor–ota-ona tizimidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash.





4. Psixologik diagnostika va rivojlantirish dasturlarini takomillashtirish — tyutorlik faoliyati uchun professional standartlarni belgilash.

5. Ta'lim sifatini oshirish — yuqori darajadagi kommunikativ va tashkilotchilik kompetensiyalari o'quvchi natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tyutorlik faoliyati deganda biz Oliy o'quv yurtida murabbiylik faoliyati bilan shug'ullunuvchi talabalarning Oliy ta'limdagi muammolari, ta'lim tarbiyasi hamda shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga molik ehtiyojlari bir tomondan bir nechta guruhlariga rahbarlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi murabbiylar tushuniladi. Bu faoliyat talabalarning oliy o'quv yurtining ta'lim va tarbiya makonidagi resurslardan foydalanish imkoniyatlarini tushunishga, hamda ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatda shaxsiy va kasbiy rivojlanish dasturlarini tuzish va amalga oshirishga yo'naltirilgan. Talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish dasturlarini tuzish hamda ularni qo'llab-quvvatlash pedagogika oliy ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Tyutorlarning faoliyat samaradorligida tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalarni o'rganishning ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS)si natijalari biz tomonimizdan o'tkazilgan tadqiqotda ijtimoiy so'rovnoma viloyatlar kesimidagi Oliy ta'lim muassasalarining tyutorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar tanlab olindi. Ushbu so'rovnoma orqali jami (n-240) nafar respondentlar ishtirok etishdi. Ushbu so'rovnoma natijalarini qo'yidagi diagrammalarda ko'rish mumkin.




diagramma “Sizningcha oliy ta'limda talabalar nazorati faqat tyutorlariga biriktirilishi adolatlimi?”

1-diagramma natijalariga ko'ra Farg'ona va Andijon hududidagi Oliy ta'limda tyutorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga “Sizningcha oliy ta'limda talabalar nazorati faqat tyutorlariga biriktirilishi adolatlimi?” deb berilgan savolimizga Farg'ona hududidagi respondentlarning 33.73 foizi Andijon hududidagi respondentlarning 37.84 foizi “ha” degan javobni berib o'tishdi. Ushbu natijalariga ko'ra Farg'ona hududidagi respondentlardan ko'ra Andijon hududidagi respondentlarning natijalari yuqori ekanligi aniqlandi. Bunga sabab tyutorlar talabalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa va samarali nazoratli bo'lishlari bunda tyutorlar o'zlariga biriktirilgan talabalarning akademik ko'rsatkichlari, davomati, shaxsiy muammolari va ijtimoiy





hayotida haqida tzliq ma'lumotga ega bo'lishlari, ularni nazorat qilish orqali yordam berish jarayonlarini yanada samarali qilishga imkon berishlari, tezkor yechimlar bunda talabalar nazorati bir necha kishiga bo'linsa ma'lumotlar tarqoq bo'lib muammolarning hal qilinishi kechikaishi mumkinligi, shaxsiy yondashuv va motivatsiya, unga ko'ra tyutorlar har bir talaba bilan alohida ishlashi natijasida ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam berilishi tadqiqot davomida isbotlandi.

Navbatdagi respondentlar ya'ni, Farg'ona hududidagi respondentlarning 45.78 foizi, Andijon hududidagi respondentlarning 35.14 foizi ushbu savolga “yo‘q” degan javobni berib o'tishdi. Bunga ko'ra Farg'ona hududidagi respondentlarning natijalari Andijon hududidagi respondentlardan ko'ra yuqori ekanligi aniqlangan. Unga sabab ish bosimining juda kattaligi bunda har bir tyutorga juda ko'p talabalarning biriktirilishi, har bir talabaga individual yondashishlari va ularning muammolari bilan shug'ullanish uchun vaqtning yetishmasligi natijada, tyutorning ish samaradorligi va sifatining pasayishi mumkinlini, vazifalarning chalkashligi, tyutorning asosiy vazifasida-talabalarning o'qishdagi muvafaqiyatiga ko'maklashish, ularni yo'naltirish va shaxsiy muammolarni hal qilishga yordam berish bo'lganligi uchun ularga ko'p holatlarda ortiqcha o'quv-metodik ishlar, xujjatlarni rasmiylashtirish, darslarga qatnashishni nazorat qilish, ijara uylardan xabardor bo'lish, talabalar turar joylaridagi navbatchilik kabi ma'muriy vazifalar ham yuklanishi, bu esa ularning faoliyatlariga to'sqinlik qilishligi, ma'suliyatning bir tomonga yuklanishi bunda talabalarning akademik muvafaqiyati nafaqat tyutorlarga yuklanishi adolatli emasligi ularning bergan javoblaridan aniqlandi.

Ushbu savolimizga Farg'ona hududidagi respondentlarning 19.28 foizi, Andijon hududidagi respondentlarning 27.02 foizi ushbu savolimizga “ba'zan” degan javobni berib o'tishdi. Bunda Farg'ona hududidagi respondentlardan ko'ra Andijon hududidagi respondentlarning natijalari yuqori ekanligi aniqlandi. Unga sabab shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan o'qitish bunda tyutorlar talabalar bilan yakka tartibda ishlash imkoniyatiga ega ekanligi, bu ularga har bir talabaling individual ehtiyojlari, o'qitish sur'ati va qizishqishlarga mos keluvchi o'quv rejasini tuzishga yordam berishi, talabaldarning imkoniyatlarini maksimal darajada oshira olishlari, vaqt va Oliy ta'lim imkoniyatlaridan, resurslardan samarali foydalanish, tezkor fikr-mulohazalar va baholash ya'ni bunda tyutor talabalarning o'qishdagi yutuq va kamchiliklarini doimiy ravishda kuzatib boradilar va tezkor fikr-mulohaza bera olish qobiliyatiga ega bo'lishligi tadqiqotimiz davomida o'z isbotini topdi.

Oliy ta'lim muassasalarining tyutorlarining tajribasizligi yoki endi ish boshlaganligi, talabalar bilan qanday samarali muloqot qilishni bilmasligi, talabalarning tortinchoqligi yoki passiv munosabati bunda ba'zi talabalar o'z fikrlarini ochchiq aytishdan, savol berishdan yoki tyutor bilan muhokama qilishdan tortinishlari, talaba va tyutor o'rtasidagi ishonchsizlik, nomuvofiq kutishlar, bunda tyutor talabadan nima kutishi va talaba tyutordan nima kutishi haqidagi fikrlarning to'g'ri kelmasligi (masalan, talaba faqat tayyor javoblar kutsa, tyutor esa undan mustaqil fikrlashni talab qilsa, muloqotda qiyinchiliklar yuzaga kelishi tabiiy), shaxsiy xususiyatlar va moslashuvchanlikning yo'qligi tadqiqot davomida aniqlandi.





Andijon hududidagi respondentlarning natijalari yuqori ekanligi aniqlandi. Unga sabab chuqur bilim va malakaning mavjudligi, bunda tyutorlar o'z fanlarini yaxshi mutaxassislar bo'lib, bu ularga talabalarning barcha savollariga to'liq tushunarli qilib javob berishlari, shaxsiylashtirgan yondashuv bunda talabaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi o'rganish uslubini tushunadi va o'quv rejasini shunga moslashtiradi, sabr va empatiya unga ko'ra tyutorlar talabalarning qiyinchiliklarini tushunish va ularga hamdardlik bilan yondashishlari, ijobiy muhit yaratish, aloqa va kamunikatsiya ko'nikmalari, talabalarni tinglay olishlari, o'z fikrlarini aniq yetkazib berishlari, talabalar bilan muloqotda muvaffaqiyat qozonishga yordam berishlari ahamiyatlidir.

Navbatdagi Farg'ona hududidagi respondentlarning 12.05 foizi hamda Andijon hududidagi 8.11 foizi ushbu savolimizga “ba'zan” degan javobni berib o'tishdi. Bunga ko'ra Andijon hududidagi respondentlar natijasidan ko'ra Farg'ona hududidagi respondentlarning natijalari yuqori ekanligi aniqlandi. Unga sabab ularda aloqa va tushunishdagi qiyinchiliklar bunda tyutor va talabalar turli xil uslublariga ega bo'lishligi, fikrlarning to'qnashuvi, o'qitish uslubiga bog'liq muammolar, ba'zi tyutorlar o'z o'qitish uslubini talabaning ehtiyojlariga moslashtira olmasligi, sabrsizlik, shaxslararo munosabatlar, stress va bosim bunda ba'zi talabalar o'z qobiliyatlariga ishonmasliklari va o'zlariga past baho berishlari, tyutorlarning har qanday tanqidi ularning stressini yanada oshirishi mumkinligi, motivaiya yetishmasligi, muloqot qilishdan qo'rqish, vaqtning noto'g'ri boshqarish, tyutorning shaxsiy muammolari ularni talabalar bilan ba'zan muloqot qilishlariga to'sinlik qilishi mumkinligi aniqlandi.

Navbatdagi respondentlar ya'ni, Farg'ona hududidagi respondentlarning 78.31 foizi, Andijon hududidagi respondentlarning 72.97 foizi ushbu savolga “yo'q” degan javobni berib o'tishdi. Bunga ko'ra Farg'ona hududidagi respondentlarning natijalari Andijon hududidagi respondentlardan ko'ra yuqori ekanligi aniqlangan. Unga sabab tyutorlar o'rtasida tez-tez nizolarning kelib chiqishiga olib keladigan bir nechta psixologik sabablar mavjud. Nizolarga olib keluvchi asosiy psixologik sabablar bular shaxsiy va qadriyatlar to'qnashuvi ya'ni turli xil qarashlar va qadriyatlar, o'ziga xos ta'lim berish uslubi, o'quv jarayoniga yondashuvlar, muvaffaqiyat mezonlari, shaxsiy xususiyatlar va moslashuvchanlikning yetishmasligi, hasad va raqobat, komunikatsiyadagi muammolar unga tushunmovchiliklar va noto'g'ri talqinlar, emotsional zo'riqish yoki vaqtning cheklanganligi, axborotni to'g'ri yetkazish yoki qabul qilishda xatoliklar yuzaga kelishi, ochiq muloqotning yo'qligi, norozilik muammolari, stress, zo'riqish va emotsional charchoq, avtonomiya (mustaqillik) ehtiyojlarning qondirilmaligi, vazifalar va ma'suliyatning noaniqligi, segaralangan resurslar, hokimiyat uchun kurash kabi holatlarning tez-tez takrorlangishi tyutorlar o'rtasida ba'zan kelishmovchiliklarni olib kelishiga sabab bo'lishi mumkin ekanligi tadqiqot davomida isbotlandi. Bu psixologik omillarni tushunish nizolarni oldini olish va ularni konstruktiv hal qilish muhimdir.

O'tkazilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma natijalari tyutorlarning kasbiy faoliyatida tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalar markaziy omil ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida respondentlarning o'z faoliyatiga munosabati,





talabalarga pedagogik-psixologik ko'mak ko'rsatish jarayonidagi xulq-atvori hamda muloqot strategiyalariga doir ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar tyutorlarning aksariyati samarali rejalashtirish, vaqtni boshqarish va guruh jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha yetarli malakaga ega ekanini, biroq ayrim hollarda kommunikativ moslashuvchanlik, faol tinglash va konstruktiv fikr almashish ko'nikmalarida rivojlanish ehtiyoji mavjudligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot tyutorlarning faoliyat samaradorligi ularning tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Mazkur ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, amaliy seminarlar va muntazam malaka oshirish dasturlari tyutorlik institutining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lishi mumkin. So'rovnoma natijalariga tayangan holda, tyutorlar uchun tizimli professional rivojlanish mexanizmlarini shakllantirish va kommunikativ kompetensiyani yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi haqida xulosa qilindi.

Foydalanildan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: «Adolat», 1998. – 302 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T: «O'zbekiston», 2018.– 40 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish kontseptsiyachini tadqiqlash to'g'risida»gi PQ- 4190 - son qarori/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019 y., 07/19/4190/2614-son.
4. Abdullayev Y.O Menejment. «Boshqarish nazariyasi va boshqalar asoslari». T. 1998 yil
5. Baratov SH.R “Mehnat jarayoni va ijtimoiy-ruhiy jihatlar/ Iqtisod va hisobot”. 1997 yil
6. Genov F Psixologiya upravleniya M. Progress 1992 yil
7. G'oziyev E.”Rahbar faoliyatidagi nuksonlarni bartaraf etish” X.T. 2000 y 3-son.
8. Ibrohim Maxmudov. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: “YUNAKSPRINT” 2006 yil.

